

## JADID MAKtablARI VA ULARDa QIZLAR TA'LIM-TARBIYASI MASALASI

Yusupova Laylo Umidbek qizi

Guliston davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix yo'naliши талабаси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12638248>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Turkiston jadidlarining asarlarida oila, xotin-qizlar roli va qizlar ta'lism tarbiyasi masalasi. Jadidchilikning yuksalishida ayollarning o'rni va jadidchilar orasidagi ayol mutaffakkirlar haqida muallifning fitrlari bayon etilgan. Yurtimiz tarixida, ijtimoiy-siyosiy jabhalarida o'z askini topib ulgurgan. Bu ayniqsa tarximizda o'chmas iz qoldirgan jadidlar hayotida ham kuzatiladi.

**Kalit so'zlar:** Turkiston jadidlari, qizlar maktabi, ta'lism tarbiya, yoshlar, ilm-fan, yangi usul maktablar, oila, vatan, mahalla, farzand.

## MODERN SCHOOLS AND THE PROBLEM OF GIRLS' EDUCATION IN THEM

**Abstract.** In this article, the issue of the family, the role of women and the education of girls in the works of Turkestan jadids. The role of women in the rise of Jadidism and the author's thoughts about female thinkers among Jadidists are described. In the history of our country, in the social and political aspects, it has found its roots. This is especially observed in the lives of the ancestors who left an indelible mark on our history.

**Key words:** Turkstan jadids, grils school, education and training, young people, science, new metod schools, family, motherland, makhalla, a child.

## СОВРЕМЕННЫЕ ШКОЛЫ И ПРОБЛЕМА ОБРАЗОВАНИЯ ДЕВОЧЕК В НИХ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается вопрос семьи, роли женщины и воспитания девочек в творчестве туркестанских джадидов. Описана роль женщин в возникновении джадидизма и мысли автора о женщинах-мыслительницах среди джадидистов. В истории нашей страны, в социальном и политическом аспектах, она нашла свои корни. Особенно это наблюдается в жизни предков, оставивших неизгладимый след в нашей истории.

**Ключевые слова:** Туркестанские джадиды, школа для девочек, образование и обучение, молодежь, наука, школы нового метода, семья, родина, махалля, ребенок.

## KIRISH

Xalqimiz tarixida buyuk allomalar, mutafakkirlar qatorida, shunday insonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan, ulug'vor ishlarga ruhlantirgan fozila, olima va oqila ayollar ham ko'p

bo‘lgan. Bugun ham xotin-qizlarimiz farzand tarbiyasida, jamiyatimizning turli sohalarida, mahallalarda fidoyilik ko‘rsatmoqdalar. Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquqmanfaatlarini, gender tenglikni ta’minalash, tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o‘rtasida ish o‘rinlari yaratish, mehnat hamda turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirildi.

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 17 milliondan ziyod opasingillarimiz, qizlarimiz, onaxon va momolarimiz yoshlarga ta’lim tarbiya erishda, oilaning tinchligi ta’minalashda munosib ishtirok etib kelishmoqda. Milliyligimizda asosan bolalar tarbiyasi bilan oilada onalar mashg‘ul bo‘lishadi. Bu jarayonlar yurtimiz tarixida, ijtimoiy-siyosiy jabhalarida o‘z askini topib ulgurgan. Bu ayniqlas tarxiimizda o‘chmas iz qoldirgan jadidlar hayoti va faoliyatida ham kuzatiladi.

### **USULLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI**

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollarning ilmli, har jihatdan yuksak axloqodob egasi bo‘lishlari uchun ziyolilar orasida jiddiy harakat avj oladi. Zero, oiladagi bola tarbiyasi ya’ni yosh avlod tarbiyasi asosan onalar qo‘lida ekani hammaga ayon bo‘lib qoladi. Shu bois ilg‘or, ziyoli ayollar nafaqat qizlar maktablarini ochib, maktabdorlik qilish, balki axloqiy-tarbiyaviy risolalar yozish yo‘li bilan ham bo‘lajak ziyoli onalarmi voyaga yetkazishga hissa qo’shadilar. Ular orasida ayollarning ham borligi diqqatga sazovordir. Yangi usul maktablari va qizlar ta’lim tarbiyasi: Jadidchilik harakatining mohiyatiga e’tibor qilib qaralsa: u ma’rifatparvarlik emas, balki ma’rifatchilik edi.

“Ma’rifatchilik” iborasiga iste’dodli olim Sh.Rizaev alohida urg‘u berib, uni atroficha tahlildan o’tkazgan. Darhaqiqat, ma’rifatparvarlar asosan ma’rifat homiyları tarzida, «tashqaridan» turib, ya’ni xalqning iste’dodli farzandlarini qo’llab - quvvatlash orqali va o‘z asarlari yordamida bilvosita faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsalar, ma’rifatchilar bir paytning o‘zida ham homiyalar, ham ma’rifatning qora mehnatchilari edi. Nazariy yo‘nalish bilan amaliyotning ana shunday chambarchas bog‘liq holda olib borilishi jadid ma’rifatchilar uchun Ovro‘pa ma’rifatparvarlari asrlar mobaynida bosib o‘tgan yo’lni bir necha o‘n yil ichida «kesib chiqish» imkonini yaratdi. U fidoyilik evaziga bunyodga keldi.[3]

Jadidlar xalqning fikrlash darajasini oshirish ularni mustaqillikka yetaklaydi deb o‘ylashardi. Bu esa albatta yangi usuldagi maktablami ochish orqali amalga oshirilardi. Lekin podsho hukumati bunday usuldagi maktablar faoliyatiga tazyiq o‘tkazardi. Har qanday ta’qib va tazyiqlarga, mutaassib ulamolarning dashnomalariga, bo‘htonlariga qaramay, jadid maktablari xalq e’tiborini qozonishi, ayniqlas, musulmon qardoshlarning bu boradagi hamjihatliklari, hamkorliklari general-gubernatorlik siyosatdonlari, mafkurachilari faoliyatini yanada kuchaytirdi. 1909 yilda Nikolay Ostroumov «Turkestanskie vedomosti» gazetasida maqolasini e’lon qildi. Unda muallif

quyidagilarni yozadi: «Rus ma'muriyatining yerliklar eski maktablariga nisbatan qo'llagan mensimaslik, nazar-pisand qilmaslik siyosati o'lkadagi hukmronligimizning dastlabki o'n yilligida o'zini oqlagan bo'lishi mumkin. Ammo keyingi uch o'n yillikda bu siyosat o'zini oqlamaganini hech narsa bilan yashirib bo'lmaydi. Mana, chindan ham pushaymon bo'ladigan voqeа sodir bo'ldi. Biz o'lkada... katta qiyinchiliklar bilan bir necha rus-tuzem maktabi ochganimizda, boshqalar tashqaridan (Qrimdan) katta g'ayrat bilan o'lka maorifi uchun boshqa bayroq ostida mustaqil faoliyat olib bordi. Bu yangi usul maktablari ma'muriyatning hech qanday ruxsatisiz ochila boshladi va ajablanarli, yo'l qo'yib bo'lmaydigan tomoni shundaki, hozir ham bunday holat oblast, uezd ma'muriyatlari, hatto hukumat maktablar inspeksiysi nazoratisiz davom etmoqda» [4].

## NATIJALAR

Jadidlar ayollarning jamiyatdagi mavqeini erkinlashtirish tarafдори edilar. Bu, ayniqsa, ta'lif olish uchun to'g'ri keldi. Jadidlarning fikricha, o'qimishli ayol musulmon jamiyatining o'ta muhim bo'g'ini bo'lgan – aynan u bolalarni tarbiyalagan, ularga hayot qoidalari, iymon-e'tiqod, or-nomus haqida ilk bor tushuncha bergen va bunga tayyor bo'lishi kerak edi. Dastlab 1893-yil Buxoro amiri ruhsati bilan Buxoroda «Yangi usul» maktabi ochildi va 1900- yilgacha Turkistonning boshqa bir qator hududlarida ham bunday maktablar ochildi. Eski usul maktablaridan farqli bu maktablarda bolalar xat savodini o'z ona tilida tovush usuli- usuli savtiyada o'rgatilgan. Jadidlar ayollarning jamiyatdagi mavqeini erkinlashtirish tarafдори edilar. Bu, ayniqsa, ta'lif olish uchun to'g'ri keldi. Abdulla Avloniy uning qo'lyozmalarida tugallanmagan pyesa ham bor. Unda muallif «erkinlik erkaklardan ko'ra ayollarga koproq kerak» degan fikrni ilgari suradi. Ko'pgina jadidlar ayollarning bilm olishini ochiqdan ochiq targ'ib qilishadi. Turkiston matbuoti va Rossiyadagi turkiy tilli matbuotda jadidlar o'rtasida qizg'in baxslarni ko'rish mumkin. Jumladan ular: «yosh qizlarga ta'lif kerak ular maktabga borib o'qish va yozishni o'rganishlari lozim» deb yozishgan. Bu ba'zi ulamolar noroziligidagi sabab bo'lgan. Ular yo'q, qizlar o'qimasligi kerak agarda ular ilmli bo'lishsa erkaklar bilan ishqiy munosabatlarga kirishishlari mumkin. Bu ularni sha'nini himoya qiladigan devorlarni buzadi, deb yozishadi. Misol tariqasida Ibrat asos solgan maktabda 30 nafar qishloq o'g'il qizlarini o'qitdi. O'qitish ishlarini o'zi tuzgan dastur asosida olib bordi. Maktab yorug' derazali katta xonaga joylashgan bo'lib, yangi o'quv qurollari bilan ta'minlangan edi. Ibrat o'z maktabiga yangicha o'qitish usullaridan xabardor bo'lgan pedagog Husayn Makayevni taklif qildi. Husayn Makayev va uning rafiqasi Fotima Makayeva Ishoqxon Ibrat maktabida o'g'il bolalar va qizlarga ta'lif berdilar. Jadid maktablarida o'g'il va qiz bolalar alohida-alohida o'qitilgan. Qizlarni o'qitgan ayollar otinoyi yoki otinbibi (Toshkentda), bibixalifa yoki bibiotin (Buxoroda), Eltibibi (Xivada) deb atalgan. Ularda qizlar tarbiyasining o'ziga xos jihatlari, chunonchi, uy-ro'zg'or tutish, pazandalik, pokizalik, sharqona

odob-axloq kabilarga o'rgatuvchi Aliy Nazimoning "Ta'limi banot", Olimat ul-Banotning "Muosharat odobi", Faxridsin ibn Rizouddinining "Tarbiyali xotun" kabi darsliklari ham o'qitilgan. Jadidchilik harakati namoyondalaridan yana biri Sadriddin Ayniy u Buhoroda yangi usul maktablari ochish bilan bir qatorda o'zining asarlarida ham zamonining muammolarini yorqin ifoda etadi.

## TAHLIL VA MUHOKAMA

"Sudho'rning o'limi" nomli asarida Qori Ishkanba obrazidagi boyning hotinlariga adolatsizligi, ko'photinlik kabi illatlarni yozadi. O'sha paytda ko'photinlik, ayollarga past nazar bilan qarash, ularni mensimaslik, oilada ayolning haq huquqlari yo'qligi haqida yozadi. Bilamizki, xotin-qizlar jamiyat hayotining barcha jabbalarida ishtiroki yildanyilga ortib bormoqda. Ular uchun faoliyatning biror bir turi taqiqlanmagan, qolaversa, ijtimoiy muhit uni ma'lum bir mavqe yoki daraja ~ 618 ~ bilan cheklab qo'ymayapti. Bir so'z bilan aytganda, bugungi kunda xotin-qizlar shaxsiy va ijtimoiy hayotda erkaklar bilan yelkadosh ishtirok etmoqda. Ularning aksariyati erishilgan natijalar bilan kifoyalanib qolmasdan, balki yanada ko'proq yutuqlarga erishishga harakat qilmoqda. Ayol xonadon charog'boni, fayzi. Ayol ishchi, xodim, u hech narsani e'tibordan chetda qoldirmagan holda, oqilona qarorlarni qabul qiladi.

Ta'kidlash kerakki, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida ayollar katta rol o'ynamoqda. Ushbu mamlakatlarning jadal iqtisodiy rivoji bevosita ayollarning biznes sohasida salmoqli yutuqlarga erishishiga olib kelmoqda. Turkiston ma'rifatparvarlarining yana bir yirik namoyandasi Dilshod Barnoning shogirdi Anbar otindir (1870). Uning axloqiy qarashlari lirik - falsafiy she'rlarida va «Qarolar falsafasi» (1898) risolasida o'z aksini topgan. Anbar otin ham inson axloqiy darajasini aql, ilm - ma'rifat bilan bog'laydi va ijtimoiy taraqqiyotga aqliy hamda axloqiy yuksaklik orqali erishish mumkin, degan aqidaga amal qiladi. Uning asarlarida axloqsizlik botqog'iga botib borayotgan jamiyatga nafratni, shariat va tariqat namoyandalari aynib ketganligi, boylardan insof ko'tarilganligi haqidagi fikrlar mardona ilgari suriladi. «Muqimiya», «Mingboshi kal Omil hajvi», «Olimjon hoji ta'rifi» kabi she'rlarida ana shu yo'nalishni ko'rish mumkin. Tanqidiy-badiiy shakldagi bu yo'nalish «Qarolar falsafasi» risolasida falsafiy-tahliliy shakl kasb etadi. Bundan tashqari, Anbar otin shoira va faylasuf olma sifatida ham, shaxs sifatida ham kishini hayratga soladigan darajada matonatli, pokiza inson, yuksak axloq egasi bo'lgan. U umrini Turkiston xalqlari ma'naviyatini yuksaltirishga bag'ishladi, nogiron bo'lishiga qaramay, adolatninining pahlavoni bo'lib kurashdi.

Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonimizga bu tom ma'nodagi qahramon ayollar orzu qilgan kun keldi. Anbar otinining olimona va shoirona bashorati amalga oshdi. Hozirgi kunda yurtimizda yutboshimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar yuqoridagi shoiraning

fikrlarining isboti bo'lmoqda.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollarning ilmli, har jihatdan yuksak axloqodob egasi bo'lishlari uchun ziyolilar orasida jiddiy harakat avj oladi. Zero, oiladagi bola tarbiyasi ya'ni yosh avlod tarbiyasi asosan onalar qo`lida ekani hammaga ayon bo`lib qoladi. Shu bois ilg`or, ziyoli ayollar nafaqat qizlar maktablarini ochib, maktabdorlik qilish, balki axloqiy-tarbiyaviy risolalar yozish yo`li bilan ham bo'lajak ziyoli onalarni voyaga yetkazishga hissa qo`shadilar. Shu jihatdan Olimat ul - Banotning Sankt - Peterburgda 1898 va 1899 yillarda ikki marta nashr etilgan «Muosharat odobi», «Tur mush odobi» asari o'z vaqtida katta ahamiyatga ega bo'lgan. «Agar hotun o'qigan bo'lsa, o'zining kim ekanligini, vazifasi nimadan iborat ekanligini shak - shubhasiz biladi. Bolalarini esa go'zal tarbiya qiladi, eri bilan yaxshi muomalada bo'ladi va nihoyat Allah Taolaning amriga muvofiq hayot kechiradi», – deydi risola muallifi. Unda ayollarning tur mushdagi o'rni, oilaviy vazifalari, er - xotin orasidagi munosabatlar, bolalar tarbiyasi uy tutish, nikoh va muhabbat borasida fikrlar bildiriladi. Ayni paytda, uy xizmatchilariga munosabatda insof va adolat yuzasidan, ularning ham uy egalari kabi inson ekanliklarini hisobga olib, ish ko'rish lozimligi ta'kidlanadi, tur mushning oqilona uyushtirilishi uchun xizmat qiladigan ibratli maslahatlar beriladi. Boshqa bir tatar ziyoli ayoli Faxr ul - Banot Sibg'atulloh qizining sakson etti saboqdan iborat «Oila saboqlari» (1913) risolasi esa tarbiyaning turli tomonlarini birday o'z ichiga oladi. Axloqshunos olma o'z risolasi mohiyatini quyidagicha belgilaydi: «Oila saboqlari xonimlarga, qizlar maktabi shogirdlariga oila vazifalari to'g'risida foydali ma'lumot bergani kabi o'quvda tamom yengillik va bir tarafdan asosli bir axloq sabog'i hamdir». U o'n ikkinchi saboqda tarbiyani «ilmli axloqning tani, negizi» deb ta'riflaydi. Asar falsafiy mushohadalardan ko'ra ko'proq amaliy ko'rsatmalardan iborat. Ayni paytda, unda ham ma'naviyatga, ham moddiyatga zamonaviy munosabat masalasi o'rta ga tashlanadi, yuksak axloqli bolani voyaga etkazishda har ikki yo'nalishdagi tarbiyaning muhimligi ta'kidlanadi.

## XULOSA

O'zbekistonda jamiyatni tubdan yangi asosda qurish va uni har tomonlama rivojlantirish xalqning dunyoqarashi, ma'naviyati jamiyatda oila va xotin qizlar ta'lim-tarbiyasi masalalari bilan ham bevosita bog'liqdir. Agar biz masalaga shu nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, oila va xotin –qizlar masalalari Turkiston jadidlarining ijodida yaqqol o'z ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin. Jadidlar xotin –qizlarimizni ma'rifatli, ya'ni jamiyatda ta'lim-tarbiyali va savodxon bo'lish orqali ularning ma'naviy yuksalishiga erishishi mumkinligi g'oyasini ilgari surdilar. Kelajak ziyoli ayollar va ulardan tug'ulajak farzandlar qo'lida, ona ziyoli va marifatli bo'lsa demak farzand ham tarbiyali bo'ladi.

## REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari, T.4.-T.: “O’zbekiston” NMIU, 2020.-B.456.
2. Anbar Otin, she’rlar, risola. –T.: Badiiy adabiyot, san’at nashri. 1968. «Туркестанский ведомости». 1909, №1.
3. Turdiev Sh. Ular Germaniyada o’qigan edilar. T.: 2006, 225-bet.
4. Doniyorov S. Yangi O’zbekiston demokratik o’zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. // “Yangi O’zbekiston”, 2021 yil 17 avgust,165 (421)-son.
5. Karimov D. Ta’limdagi yangilanish va sifat // “Xalq so’zi”, 2022 yil 30 sentyabr
6. Maxmudov N. Milliy o’zligimizning rost va raso o’zagi // “Xalq so’zi”, 2022 yil 28 dekabr.
7. Qodirova M., XIX asr o’zbek shoiralari ijodida inson va xalq taqdiri. –T.: O’qituvchi, 1977.
8. Qayumov L., Husainova F. Demokrat shoira Anbar Otin. –T.: O’zbekiston, 1964.
9. Norboyeva T. Ayol baxtli bo’lsa, oila va jamiyat ham albatta baxtli bo’ladi //“Xalq so’zi”, 2022 yil 6 sentyabr.
10. Saidov A. Inson qadrini konstitutsiyaviy ulug’lash va Yangi O’zbekistonni barpo etishda parlament mas’uliyati // “Yangi O’zbekiston”, 2022-yil 24-dekabr, 2662-son.
11. Yakupbayev Safarboy. Jadid marifatparvarlari g’oyalarida xotin – qizlarni o’qitishning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri// International scientific journal of biruni. 76-80.